

PAPER

GOLSHTIN ZOTLI TURLI LINYALARGA MANSUB SIGIRLARNING 1-AVLOD QIZLARINI ISTE'MOL QILGAN OZUQASINI TIRIK VAZN BILAN QOPLASH XUSUSIYATLARI

Tursunboyev Shoxrux Bobir o'g'li¹, *

¹Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

*tursunboyev@gmail.com

Abstract

Maqolada Daniya seleksiyasiga mansub golshtin zotli turli liniyalariga mansub tanalarning ozuqani tirik vazn bilan qoplash ko'rsatkichlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari keltirilgan.

Key words: Daniya seleksiyasi, golshtin zotli, linyalar, ozuqa sarfi, tirik vazn, EOB, mutloq o'sish, ko'rsatkichlar.

Kirish

Sut ishlab chiqarish sanoat asosida tashkil qilingan kompleks podalarida yosh o'suvchi tanalardan foydalanishning samaradorligini baholashda ularning o'sish davrida ozuqani tirik vazn bilan qoplash darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosalariga qaraganda, sigirlarni to'la qiymatli maqbul oziqlantirish tipini ishlab chiqish mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishda yuqori samara beradi. Samarali oziqlantirish tipi qo'llanilganda sigirlarning mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlari yuqori darajada yuzaga chiqariladi va ozuqani sut bilan qoplash darajasi sezilarli darajada yaxshilanadi hamda sohaning iqtisodiy samaradorligi yaxshilanadi [1]. Tadqiqot natijalarini ko'rsatishicha, sigirlarni sutdan chiqqandan tuqqangacha bo'lgan davrda to'la qiymatli oziqlantirishni ta'minlash keyingi laktatsiyasida ham sut mahsuldorligini ko'payishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari

1-Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha tajribadagi tanalarning mahsuldorlik darajasi uzviy ravishda ozuqani tirik vazn bilan qoplash ko'rsatkichlarini tajribamiz davomida o'rganildi.

Tajribadagi Oman Justi liniyasiga mansub tanalarga tug'il-

ganidan 90 kunlik yoshiga qadar 270,58 kg EOB sarflangan 1 kg vazin olish uchun 4,02 kg EOB, 180 kunlik yoshiga qadar 406,87 EOB sarflanib 1 kg trik vazin olishi uchun o'rtacha 5,31 EOB, 207 kunlik yoshida esa 8,71 EOB, 360 kunlik yoshida esa 10,3 kg EOB, 450 kunlik yoshida 12,11 EOB jami tajriba davomida esa 8,02 EOB o'rtacha sarflandi. Tengdoshlari Ha Manfred liniyasiga mansub tanlarga 90 kunlik yoshiga qadar 267,36 kg EOB sarflanib 1 kg tirik vazin olishiga o'rtacha bu davirda 4,10 EOB, 180 kunlik yoshiga qadar 401,04 kg EOB sarflanib o'rtacha 1 kg tirik vazin olishi uchun o'rtacha 5,41kg EOB, 270 kunlik yoshiga qadar esa 608,15 kg EOB sarflanib 1 kg o'rtacha vazin olish uchun 8,70 kg EOB, 360 kunlik yoshiga qadar 659,9 kg EOB sarflanib 1 kg o'rtacha tirik vazin olishga 10,15 kg EOB. 450 kunlik yoshiga qadar 746,64 EOB sarflanib 1 kg trik vazin olishga 12,38 kg EOB. Butun ajriba davomida jami 2683,45 kg EOB sarflanib o'rtacha 1 kg tirik vazin olish uchun 8,02 kg EOB sarflandi.

Arlinda liniyasiga mansub tengdoshlariga esa 90 kunlik yoshi davrida 258,63 kg EOB sarflanib 1 kg tirik vazin olish uchun o'rtacha 4,07 kg EOB, 180 kunlik yoshida 389,94 kg EOB sarflanib 1 kg tirik vazin olishga o'rtacha 5,41 kg EOB, 270 kunlik yoshiidavrida o'rtacha 586,7 kg EOB sarflanib 1 kg trik vazin olishga o'rtacha 8,69 kg EOB. 360 kunlik yoshiga kelib 644,96 kg EOB sarflandi hamda 1 kg vazin olishga o'rtacha 10,91 kg EOB, 450 kunlik yoshiga kelib o'rtacha 734,5 EOB sarflanib 1 kg vazin olishi uchun o'rtacha

Table 1. Turli liniyalarga mansub tanalarning ozuqani tirik vazn bilan qoplash ko'rsatkichlari

O'sish davri, oy	Oman Justi		Ha Manfred		Arlinda	
	Mutloq o'sish, kg	EOB	Mutloq o'sish, kg	EOB	Mutloq o'sish, kg	EOB
0-90	67,30	270,58	65,2	267,36	63,47	258,63
180	76,59	406,87	74,07	401,04	72,0	389,94
270	72,07	646,85	69,9	608,15	67,5	586,7
360	67,5	694,1	65,0	659,9	63,27	644,96
450	63,07	763,9	60,37	747,64	57,87	734,5
Jami	346,53	2782,3	334,54	2683,45	324,11	2612,72

12,69 kg EOB, jami o'sish va rivojlanish davrlari uchun 2612,72 kg EOB sarflanib 1 kg tirik vazin olish uchun o'rtacha 8,08 kg EOB sarflandi.

Xulosa

Golshtin zotli Daniya seleksiyasiga mansub sigirlardan oligan qizlari barcha o'sish va rivojlanish davrlarida onalarining genetik imkoniyatlari qizlarida takrorlanganini hamda berilgan oziqalarni yaxshi o'zlashtirganligiga davrlar kesimida olingan yuqori mutloq o'sish olinganligi bilan izoxlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Амиров Ш.Қ., Абулсаидов Б.С., Усмонова Л.Ш. Сигирларни маҳсулдорлигида - озуқа ва озиқлантириш муҳим омил. //Самарқанд давлат ветеринария медитсиnasi, чорвачилик ва биотехнологиялар университети “Қишлоқ хоъжалигида инноватсион технологияларни ишлаб чиқариш ва жорий етишнинг истиқболдаги вазифалари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференсияси (2022-йил 12-14 май 238-240 б)
2. Асраев У.Б., Каххаров А.К., Хидиров К.И Голштин зотли қорамолларнинг подани тўлдиришга мўлжалланган бузоқларини жадал боқишда ўсиш ва ривожланиши. // Chorvachilik va naslchilik ishi. 2019. № 3. 7- 9 б.
3. Аширов М., Нурматов А., Аллашов Б., Эшматов И., Рўзиев Р. Жумадуллаев Б, Хидиров К., Комилов А, Жамолов С., Баҳриддинов Ф.// Фермер ва дехқон хўжаликлари ҳамда аҳоли хонадонларида қорамолчиликни ривожлантириш бўйича амалий қўлланма Тошкент 2019, 11 б.
4. Батанов С.Д., Воторопина М.В., Шкарупа Э.И. Продуктивное долголетие и воспроизводительные качества коров черно-пестрой породы отечественной и голландской селекции. Ж. «Зоотехния», -№3, 2011. С. 2-4.